

O‘ZBEK TILINI O‘RGATISH UCHUN (5 YOSHDA KATTA BOLALARGA) DASTUR MODEL

Uzoqova Asalxon

Andijon davlat univerisiteti I kurs magistrant

uzoqovaasaloy@gmail.com

+998880121002

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19363814>

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilini kichik yoshdagi o‘zbek o‘quvchilarga o‘rgatuvchi dasturning lingvistik modeli tuzilgan. Tilning pog‘onalashtirib o‘rgatish va har bir pog‘ona uchun o‘ziga mos o‘rgatish va tekshirish uchun moslashtirilgan misollar uchun na‘munaviy takliflar berilgan.

Annotation: This article presents a linguistic model for a software application designed to teach the Uzbek language to young children. The model utilizes a tiered pedagogical approach, providing specific teaching methodologies and tailored assessment exercises for each developmental stage.

Kalit so‘zlar: tabiiy tilni o‘rganish (NLP), tilni o‘zlashtirish (LA), Bixeviorizm, Kognitivizm, Interaksionizm, Generativizm, Savodxonlik, Morfologiya, Sintaktika, grammatika.

Ta‘limiy dasturlar qaysi fan yoki bilimni o‘rgatishiga va dasturdan foydalanuvchilarning o‘rtacha yoshi ko‘ra turli xil ko‘rinish va dizaynda bo‘ladi. Ta‘limiy dasturlar shaxsiylashtirilgan, qiziq va interaktiv mazmun o‘yinlar asosida o‘quvchini o‘z ustida ishlashga undovchi, eslab qolishni yaxshilovchi hamda o‘rganishni qulay va kamxarj bo‘lishi bilan bir qatorda, kommunikatsiya o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirib, o‘zgarish va natijalarni kuzatib boradi.¹ Lekin hamma dasturlar uchun bitta umumiy jihat bor, u ham bo‘lsa o‘rgatishning bosqichma bosqichligidir. Ba‘zi dasturlar (Duolingo, IbratAcademy) o‘rganuvchining fan bo‘yicha bilim darajasini aniqlab oling ularga mos bosqichidan o‘rgatishni boshlaydi. Boshqa dasturlar, asosan kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘jallangan dasturlar (Epic, SplashLearn, Khan Kids) kabilar esa o‘rganuvchilarning yoshiga ko‘ra o‘rgatish usuli, topshiriqlari, o‘zlashtirish nazoratini tanlaydi.

Yuqoridagi kuzatishlarga ko‘ra biz Ona tilini o‘rgatuvchi dasturimizda har ikkala omilga ko‘ra o‘rganuvchilarga mos topshiriq berishimiz kerak. Ya‘ni ham o‘quvchining yoshini, ham uning bilim darajasini inobatga olishimiz lozim. Yoshini so‘rash orqali aniqlagach, bilim darajasini yoshiga mos test berish orqali aniqlaymiz. Ta‘lim ilovalarida o‘quvchilar darajasini o‘rnatilgan shakllantiruvchi baholashlar (viktoralalar, tezkor fikr-mulohazalar), ish faoliyatini kuzatish (ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, rivojlanish hisobotlari), jalb qilish ko‘rsatkichlari (topshiriqni bajarish vaqti, motivatsiya) va yuqori darajadagi fikrlash qiyinchiliklari aralashmasi orqali o‘lchaysiz, shuningdek, o‘qituvchi boshchiligidagi bajarish darajasi, aniq ko‘nikma ballari va individual o‘shish va ehtiyojlarni baholash uchun eksport qilinadigan hisobotlar kabi ma‘lumotlarni tahlil qilaisiz.² O‘rganuvchi tomonidan hox u o‘z tili bo‘lsin, hox ikkinchi tilni o‘zlashtirish (Language acquisition) jarayonini tilshunoslar va psixologlar o‘rganishadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, tilni o‘zlashtirish (LA) bo‘yicha 4 xil turdagi gipoteza mavjud. Ular quyidagilar:

1. Bixeviorizm (Xulq-atvor nazariyasi): Til taqlid qilish va rag‘batlantirish (mustahkamlash) orqali o‘rganiladi. Bola atrofida qilarni eshitadi, ularga taqlid qiladi va to‘g‘ri gapirganda maqtov yoki tushunish orqali ijobiy natijaga erishadi.

2. Kognitivizm (Bilish nazariyasi): Til rivojlanishi umumiy aqliy (kognitiv) o'sish bilan bog'liq. Bola avval dunyoni tushunadi, tushunchalarni shakllantiradi, so'ngra ularni ifodalash uchun tildan foydalanadi (masalan, "o'tmish" tushunchasini anglamasdan turib, o'tgan zamon fe'llarini ishlata olmaydi).

3. Interaksionizm (Ijtimoiy yondashuv): Ijtimoiy muloqot va kontekstga urg'u beradi. Til faqat boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida, ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy muhit ta'sirida rivojlanadi.

4. Generativizm (Tug'ma qobiliyat nazariyasi): Inson miyasida tug'ma "Til o'zlashtirish moslamasi" (LAD - Language Acquisition Device) va "Universal grammatika" mavjudligini ilgari suradi. Unga ko'ra, bolalar til qoidalarini o'rganishga biologik jihatdan moyil bo'lib tug'iladilar.⁴

Bularning barchasi "Katta to'rtlik" (Big four) deb nomlangan til o'zlashtirishning poydevorlari hisoblanadi. Demak biz dasturni tuzishda bularning barchasini inobatga olishimiz zarur.

Birinci bo'lib dasturni ichki o'rganish bosqichlariga bo'lishdir.

0. Savodxonlik (Bu qismga daraja berilmaydi. Chunki u faqat yozishni bilmaydigan foydalanuvchilar uchun.)

1. Fonetika (Talaffuzda tovushlarni farqlash, faqat og'zaki nutqda uchraydigan tovush o'zgarishlarini yozuvda to'g'ri yozishni o'rgatish)

2. Morfologiya (So'zlarning sinonimlari, antonimlarini gaplarda o'rinli foydalanish, paronimlarni farqlash va to'g'ri ishlatish. Abbrivatsiyalar, o'zlashma so'zlar va ularning imlosi)

3. Sintaktika (Gap turlari, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, gaplarni o'rinli ishlatishini o'rgatish)

Savodxonlik qismi bu erkin bo'ladi. Savodxonlikni biz ikki qismga bo'lamiz. Bosma harflar va ularni to'g'ri yozish. Harflarni bosma xolatda o'rgatayotganda ularni tovushlarga moslashtirish orqali o'rgatiladi. Bunda savodxonlikka ayniqsa o', g' harflarning yozilishiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki klaviaturalarda bu harflar yo'q va ularni amallar kombinatsiyasi orqali yozish zarurati bor.

Imlo o'rganuvchining yoshi va imloni bilish bilmasligi bo'yicha erkin tanlov bo'ladi. Imloni o'rgatishda o'quvchiga ham bosma ham yozma harflarni o'rgatish zarur. Dastlab o'rganuvchiga tovush hamda unga mos keladigan harflarni ko'rsatish, keyin esa harflarning to'g'ri yozilishini ko'rsatish. Bunda biz quyidagicha tasvirli harflardan foydalanishimiz mumkin.

Tekshirish uchun foydalanuvchiga harflarni yozish uchun alohida oyna ochish, eshitgan tovushning qaysi harf ekanligini tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Topshiriq asosan test ko'rinishida bo'lishi va uchtadan ortiq variant bo'lmasligi zarur. 80% va undan ortiq natija ko'rsatganlar keyingi bosqichga o'tadi.

Ikkinchi bosqich Fonetika bo'lib, bu qismda biz ba'zi bir qiyinchiliklarga to'g'ri kelishimiz mumkin. Garchi o'zbek tilida aksariyat so'zlar aytilishiga ko'ra yozilsada, shevalarimizning ta'siri hamda "I" tovushuning ba'zan tushib qolishi yosh o'rganuvchilarni chalg'itishi mumkin. Demak biz bu bo'limda quyidagilarga e'tibor berishimiz lozim.

1. "I" tovushi talaffuzda tushib qoladigan so'zlar(bilan,qiyin).

2. O'zlashtirma so'zlarga, ayniqsa qator unli va undoshlari mavjud bo'lgan so'zlarga. Chunki talaffuz davomida bunday so'zlardagi tovushlarni tushirish, unlilar o'rtasiga undosh tovush qo'shish kabi hodisalar kuzatiladi va ba'zan bu imlodan ham uchrab turadi. Bunda bizga

“Yangi lotin yozuvining imlo qoidalarini” (VM 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 1-bo‘lim 1-32-gacha bo‘lgan qoidalar asos vazifasini o‘taydi.

3. Jarangli va jarangsiz tovushlar, ularning talaffuzi, qo‘shimcha qo‘shilishidagi o‘zgarishlar. (chiqti- aytiladi, chiqdi-yoziladi)

4. Talaffuzda ba‘zan tovushlar tushib qolishiga va yozuvda bu aks etmasligiga. (kepti-aytiladi, kelibdi-yoziladi)

O‘rgatish jarayonida o‘rganuvchilarga nafaqat to‘g‘ri yozish balki to‘g‘ri talaffuz qilishni ham o‘rgatish kerak. Ya‘ni “bilan” so‘zini ular “bilan” deb talaffuz qilinishi xato ekanligi, “blan” deb talaffuz qilish to‘g‘riligi va garchi “blan” deb aytilsada “bilan” deb yozish to‘g‘ri ekanligi o‘rgatilishi kerak. Va bu boshqa barcha so‘zlarga tegishlidir.

Tekshirish jarayonida bu bosqichdan boshlab biz o‘rganuvchilarga feedback berishni boshlaymiz. Ya‘ni har bir xato javob nega xatoligini tushuntirib ketiladi. Tekshirish uchun topshiriqlar og‘zaki, yozma va test ko‘rinishida bo‘lishi kerak. Bu o‘rganuvchining ham nutq, ham o‘qishini rivojlantiradi.

Uchinchi bo‘lim Morfologiya xisoblanadi. Bunda so‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish, ulardan to‘g‘ri foydalanish o‘rgatiladi. morfologiyada biz quyidagilarga e‘tiborimizni qaratamiz:

1. Antonimlar
2. Sinonimlar
3. Paronimlar
4. Omonimlar
5. Abbrevatsiyalar va qisqartirish
6. Neologizmlar. Asosan talaffuz qilish qiyin bo‘lgan so‘zlarga e‘tibor qaratishimiz lozim.

So‘zlarni o‘rgatish jarayonida esa ularni mavzusiga qarab guruhlariga bo‘lish o‘quvchiga yegillik beradi. Bu jarayonda biz e‘tibor berishimiz kerak bo‘lgan jihat shundaki, bolalar nafaqat o‘qish va yozishni, bir vaqtning o‘zida yangi so‘zlarni ham o‘rganib ketishmoqda. Auditoriya asosan kichik yoshlilar ekanligini inobatga olgan holda, mavzularni murakkab grammatik qoidalarga to‘ldirmasdan o‘qishni quvnoq qilishga e‘tibor qaratgamiz. So‘zlar va ularning imlosini o‘rgatishning eng foydali usullari ko‘p qirrali, kontekstli yondashuvni o‘z ichiga oladi. Bularga: tez-tez ovoz chiqarib o‘qish, boy suhbatlar o‘tkazish, so‘zlarni mazmunli kontekstda qo‘llash, so‘z o‘yinlarini o‘ynash, jismoniy harakatlardan foydalanish (so‘zlarni harakatga keltirish, kaftlarga yozish) va ko‘rishni ma‘no bilan birlashtirish, imlo va imloni o‘zgartirish kabi harakatlar kiradi.³ yana so‘zlarni o‘rgatish jarayonida biz ularni ma‘nosiga ko‘ra to‘plamlarga bo‘lib o‘rgatishimiz ma‘qul. Chunki bu orqali o‘rganish kichik yoshdagi bolalar uchun samarali hisoblanadi. Bu bo‘limdan boshlab biz rasmi savolarni joylashtirishimiz, o‘rgatish jarayonida ham rasmlardan foydalanishimiz samarali bo‘ladi.

Har bir bo‘lim o‘rganilgach, shu bo‘lim bo‘yicha tekshirish uchun maxsus topshiriqlar qo‘yilishi lozim. Topshiriqlar test ko‘rinishida bo‘lib, test savollari so‘zlarning yozilishi, talaffuzi va ma‘nolarini qamrab olishi lozim. Bundan tashqari testda avvalgi mavzlardan bir nechta savollar ham bo‘lishi kerak. Testlar oddiydan murakkabga qarab ketishi maqsadga muvofiq. Testlar bosqichlarga bo‘linishi ham muhim hisoblanadi. O‘rganishlar davomida bunday tekshirishning samaradorligi isbotlangan va hozirgi kunda bu usuldan eng ommaviy hisoblangan Duolingo ilovasi ham foydalanadi. Ilovada tekshirishni quyidagicha ifodalashgan “...Lug‘at boyligi o‘rgatishning malakaviy usli o‘sha mavzu atrofida (masalan, mehmonxona, aeroport, pasport) shakllantirilgan va grammatik mavzular malaka doirasidagi darslar bo‘ylab

izchil bo'lishiga e'tibor berilgan. Darslar odatda ma'lum bir lug'at boyligi va/yoki grammatik tushunchani o'rgatishga mo'ljallangan 12-15 ta mashqdan iborat bo'ladi. Duolingo o'quv dasturi dizaynerlari tanish tushunchalarni kelajakdagi malakalarda yanada murakkabroq kontekstlarda qayta ko'rib chiqish uchun spiral o'quv dasturi jihatlarini tatbiq etishadi. Har bir ko'nikma uchun ajratilgan besh bosqichli tizim o'quvchilarga bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini beradi. Bunda o'rganuvchilar avval tanishgan so'z boyligi yoki grammatik qoidalarni tobora murakkablashib boruvchi kontekstlarda qayta takrorlaydilar. Barcha ko'nikmalarni o'zlashtirish poydevor vazifasini o'tovchi 0-darajadan boshlanadi. O'quvchi mahorat darajasini oshirib borgani sayin, darslar ketma-ketligi mazmunan o'zgarib bora-da, ularni mustahkamlash uchun beriladigan mashqlar turlari murakkablashib boradi.”⁵ Yuqoridagi tekshirish tizimi samaraliligi isbotlanganligi, o'rganuvchilarning darslarni yarim yo'lda tashlab ketmasligini foizi oshganligi ham maqolada beriv o'tilgan. Shuni inobatga olgan holda biz ham o'z dasturimizda o'rganuvchilarga tekshirish uchun beriladigan topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab, va har bir to'plam tugallanganidan so'ng takrorlash uchun yana alohida bir bosqich ajratishimiz lozim bo'ladi.

Dasturda so'zlar bilan birga ularning ma'no munosabatiga ko'ra turlari va ulardan unumli foydalanishni ham o'rgatib ektishimiz lozim bo'ladi. Bu holatda o'rganuvchilarga qoidalar ham o'rgatilishi lozim bo'ladi. Bu vaziyatda biz har bir turga alohida guruh sifatida qarashimiz va o'ziga xos bo'lgan mahsus nazorat savollari va topshiriqlarini tayyorlashimiz kerak.

1. Sinonimlar. Sinonimlarni o'rgatish jarayonida albatta sinonimik qatorni unutmasligimiz kerak. Bunda so'zlarni sinonimik qatordan tashqari foydalanish jarayonida nuqt uslublariga (rasmiiy usul, adabiy so'zlashuv usuli, so'zlashuv usuli, badiiiy usul) mos ravishda qo'llash va g'alizlikka yo'l qo'ymaslikni o'rgatib o'tish zarurati bor. Ya'ni kursni tugatgan o'quvchi “Chehrangizni yuving” deyish so'zlashuv uslubiga mos kelmasligini anglash kerak.

2. Antonimlar. Antonimlar zid ma'noli so'zlar ekanligini inobatga olgan holatda, dasturda o'rganuvchilarga ulardan samarali foydalanishni o'rtashimiz zarur. Bunday biz o'rganuvchiga bir so'zni o'rgatdik. Bir vaqtning o'zida biz uning ham sinonimini, ham antonimini o'rgatib o'tamiz. Bunda ulardan to'g'ri foydalanishni gaplar orqali ifodalash kerak.

3. Omonimlar. Omonimlar ham chalg'ituvchi hisoblanadi. Chunki garchi ular shaklan bir xil bo'lsada, ma'nosi farqlanadi. Buni o'rgatish uchun gap tarkibida berish va ma'nosini alohida izohlash kerak. Masalan:

“1. Mammun bo'lib ipak qurtlari,

O'rmalar tut yaproqlarida. (H.Po'lat)

2. Juvon boshidan ro'moli tushib ketgan, Sidiqjonga orqasini o'girib, ro'r ishtaxa bilan tut terib yemoqda edi. (A.Qahhor)

3. Ko'r tutganini qo'ymas, kar- eshitganini. (maqol)

Ma'nosi:

1. Tut-daraxt:

2. Tut- me'va

3. Tut- qo'l bilan ushlamoq.

Buni o'rganganini tekshirish uchun gapda ishlatilgan omonimlarning ma'nolarini moslashtirish orqali tekshirishimiz mumkin.

4. Paronimlarni o'rgatish boshqalariga nisbatan ko'proq e'tiborni talab etadi. Chunki og'zaki nutqda biz paronimlarni deyarli bir xil talaffuz qilamiz. Aynan shu qismi o'rganuvchini

chalgʻitadi. Bizning foydalanuvchilarimiz kichik yoshdagi bolalar ekanligi inobatga oladigan boʻlsak ular uchun bob va bop soʻzi bir xil farqsizdek. Chunki uning fikricha soʻzni qanday aytsa shunday yozish lozim, u bobni ham bopni ham “bop” deb talaffuz qiladi. Demak endi biz dasturimizga audio imkoniyatini ham joylashtirishimiz kerak boʻladi. Visuallik endi bu qismda unchalik ham foydali emas. Biz ovoz umkoniyati orqali oʻrganuvchiga bobni toʻgʻri talaffuzini oʻrgatib oʻtamiz hamda huddi omonimlarni oʻrgatgan kabi gaplar tarkibida keltirib maʼnosini ham izohlab oʻtishimiz zarur.

5. Abbrevatsiya va shartli qisqarmalar. Bu eng quvnoq qismi. Chunki biz abbrevatsiyalarni qisqa quiz yoki test kabi oʻyinlar orqali oʻrgatish oson. Abbrevatsiya va uning toʻliq variant qandayligini vizial effektlar orqali koʻrsatib berish kerak. Masalan:

BMT- Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

Bunda keltirilgan visual (BMT logotipi) oʻrganuvchi uchun darsga qoʻshimcha rang beradi. Yodalanilayotgan narsaning turli ranglar bilan belgilash xotirada yaxshi saqlab qolinishi fakt xisoblanadi.

Shartli qisqartmalar uchun esa biz oʻrganuvchiga birinchi boʻlib shartli qisqartmalarning oxiriga nuqta qoʻyish kerak ekanligini qoida sifatida oʻrtagib oʻtishimiz kerak.



UNITED NATIONS

6. Neologizmlarda turk tiliga xos boʻlmagan soʻzlar imlosi qiyinchilikka sabab boʻladi. Soʻzlarni qator undosh bilan boshlanishi yoki soʻz tarkibida qator unlilarning kelishi turk tiliga xos emas. Biz bunday soʻzlar talaffuzini oʻzimizga moslashtirish uchun soʻz boshiga unli qoʻshish va unlilar orasiga boshqa bir undoshni qoʻshib talaffuz qilishimiz koʻp uchraydi. Biz neologizmlarni yozishda biz shakily anʼanaviy tamoyilga asoslanamiz. “Istol” deb talaffuz qilsak-da “stol” deb yozamiz. Bunday soʻzlarni ham lugʻat kabi yodlatish kerak. Bunda ham imlo muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda texnik rivojlanish tufayli texnik soʻzlar kirib kelmoqda. Bunday soʻzlarning asosiy qismi ingliz tilidan kirib kelmoqda. Ingliz tilida soʻzlar yozilgani kabi talaffuz qilinmasligi esa hammamizga maʼlum. Aynan shu oʻrganuvchiga qiyinchilik tugʻdiradi. Buning qoidasi yoʻq! demak uni faqat yodlashimiz mumkin. Eʼtobor berishimiz kerak boʻlgan qism soʻzlarning yosh jihatidan mosligidir. Chunki 5-6 yoshli oʻquvchiga “protessor” soʻzini oʻrgatishimiz, u oʻrganishi mumkin, ammo u bu soʻzdan qanchalik koʻp foydalanishi aniq emas. Demak biz neologizmlarni yosh chegarasiga eʼtobor beramiz.

Keying boʻlimimiz sintaktikadir. Oʻzbek tilini sintaktik qolipga solishi juda qiyin. Buning sababi oʻzbek tilida erkin inversiya kuchlidir. Oʻzbek tilida hatto kesimni ham joyidan qoʻzqatish mumkin. Bolalarga sintaksisni oʻrgatayotganda, gap kesimsiz boʻlmasligini uqtirishimiz kerak. Chomiskiyga koʻra til insonning organlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh bolalarga gap tuzish grammatika oʻrgatilmada ular grammatik jihatdan toʻgʻri gap tuzib gapira oladi. Ammo hamma ham bu fikrga qoshilmaydi. Generativistik nazariyalar, odatda, sintaksisning avtonomligi (mustaqilligi) faraziga tayanadi: yaʼni “tilning formal elementlarining birikish imkoniyatlarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar, cheklovlar va

h.k.) ma’no, diskurs yoki tildan foydalanish konstruktlariga asoslanmaydi” (Newmeyer, 2016). Tabiiyki, sintaksis ma’no, diskurs va tildan foydalanish jarayonlari bilan o’zaro aloqada (interfeysda) bo’lishi lozim.

Kamida bitta generativistik yondashuv (masalan, Grinstead, 2021) bolalarga xos nutqiy xatolar grammatik (sintaktik) bilimning kattalarnikidan farq qilishi natijasi emas, balki sintaksis hamda diskurs/tildan foydalanish o’rtasidagi o’zaro aloqa (interfeys) mahsulidir deb hisoblaydi. Bu holat generativistik yo’nalishdagi kompetensiya (lingvistik bilim) va performans (nutqiy faoliyat) o’rtasidagi mashhur farqlanishga misol bo’la oladi (Chomskiy, 1965): bola sintaksis bo’yicha kattalarniki kabi mukammal bilimga (mukammal kompetensiya) ega bo’lishi mumkin, biroq xotira yetishmovchiligi kabi nolingvistik omillar sababli nutqiy jarayonda (performansda) baribir bolalarcha xatolarga (masalan, “it goed over there”) yo’l qo’yadi.⁴ Ammo bunday vaziyat o’zbek tilida unchalik ham uchramaydi. Chunki bizda zamon ingliz tilidagi kabi murakkab emas, bizda asosan uchraydigan xatò bolalarning vaqtini anglatuvchi so’zlar bilan yuzaga keladi. Ular bugun, ertaga, hozir, hali kabi so’zlarni noo’rin qo’llashlari mumkin. Ammo bu jarayon uzoqqa cho’zilmaydi, bolalar 5 yoshigacha vaqtini bildiruvchi so’zlarni to’g’ri o’rganib ulgurishadi. LA (language Acquisition) ning bizga qo’l keladigan jihati ham aynan shu. Demak bolalarga aynan grammatik qoidalarni bitta-bitta o’rgatib o’tirish shart emas, chunki ularda o’z tillariga ko’ra LA allaqachon shakllangan. Biz bunda o’rganuvchilarga gaplarda foydalanilayotgan so’zlarning uslubiy va ma’noviy jihatdan to’g’riligini o’rgatib o’tishimiz kerak. Chunki yosh bolalar LA jarayinida biror bir so’zni hali o’rganib ulgurmagan bo’lsa, unga qaysidir bir jihatlardan o’xshash bo’lgan boshqa biladigan so’zlarni bilmaydigan so’zini o’rniga ishlatishadi.

Qo’shma gaplarni o’rgatish jarayonida esa, biz ularni bog’lovchi vositalarni to’g’ri qo’llanilishini o’rgatamiz. Gaplarning grammatikasi murakkabligini inobatga olishimiz kerak. Biz dasturni kichik yoshdagi o’quvchilar uchun tayyorlamoqchimizmi, demak dastur ham soda va tushunish oson bo’lishi kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. how educational apps are driving innovation in learning. Elsa martin 21.08.2024
2. ways to evaluate educational apps
3. 21 fun ways to improve your child's vocabulary By Kate Bibby 17 Mar 2022
4. Language Acquisition by Ben Ambridge Published on Jul 24, 2024
5. Methods for Language Learning Assessment at Scale: Duolingo Case Study by Lucy Portnoff, Erin Gustafson, Joseph Rollinson, Klinton Bicknell